Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	



IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASH PEDAGOGIK MUAMMOLARI



Delov To'liqin Erkinovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti

"Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedrası, dotsent v. b. (PhD)

ORCID: 0000-0003-2123-4095

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonida uchraydigan asosiy pedagogik muammolar, ularning sabablari va yechim yo'llari tahlil qilingan. Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash zaruriyati asoslab berilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida iqtidorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar - metodik, tashkiliy va psixologik to'siqlar ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iqtidorli talaba, iqtidorni aniqlash, pedagogik muammolar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual yondashuv, differensial o'qitish, ijodiy muhit, motivatsiya, ta'lim sifati, psixologik qo'llab-quvvatlash, raqamli pedagogika, innovatsion ta'lim texnologiyalari, mentorlik tizimi, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik, ta'limda kreativlik.

Abstract: This article analyzes the main pedagogical problems encountered in the process of working with gifted students, their causes and solutions. The need to identify gifted young people, develop their individual abilities, and apply a person-centered approach in the teaching process is substantiated. The article scientifically highlights the factors that hinder the development of talent in the modern education system - methodological, organizational and psychological barriers.

Key words: Gifted student, talent identification, pedagogical challenges, individualized learning, differentiated instruction, creative environment, motivation, educational quality, psychological support, digital pedagogy, innovative teaching technologies, mentoring system, socio-pedagogical cooperation, creativity in education.

Аннотация: В статье анализируются основные педагогические проблемы, возникающие в процессе работы с одарёнными учащимися, причины их возникновения и пути решения. Обосновывается необходимость выявления одарённой молодёжи, развития её индивидуальных способностей и применения личностно-ориентированного подхода в педагогическом процессе. В статье научно обоснованы факторы, препятствующие развитию одарённости в современной системе образования: методические, организационные и психологические барьеры.

Ключевые слова: Одаренный ученик, выявление талантов, педагогические проблемы, личностно-ориентированное образование, индивидуальный подход, дифференцированное обучение, творческая среда, мотивация, качество образования, психологическое сопровождение, цифровая педагогика, инновационные образовательные технологии, система наставничества, социально-педагогическое сотрудничество, креативность в образовании.

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida axborot texnologiyalari yo'nalishida yuqori intellektual salohiyatga ega va iste'dodli yoshlarni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bunga yaqqol misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-4851-son¹ qarori, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5- oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son² Farmoni va O'zbekiston Respublikasi

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-4851-son qaror: <https://lex.uz/docs/-5032128>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5- oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmon: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

Prezidentning 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4910-son³ qarorlarida bugungi kun yoshlariga, iqtidor egalariga juda ko’p imkoniyatlar berilmoqda.

Ayniqsa, har qanday davlatning rivojlanishiga asos bo’ladigan iqtidori yuqori yoshlarga davlatimiz tomonidan katta imkoniyatlar yaratilmoqda. 2020- yil 23- sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun-ning 4-moddasida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag’batlantirish belgilab qo’yilgan bo’lib, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to’la amal qilib kelinmoqda. Ta’lim oluvchilarning iste’dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan rag’batlantirilib borilmoqda. Bunday rag’batlantirishlar sirasiga iste’dodli talabalarni faxriy yorliqlar, stipendiyalar hamda mukofotlar bilan taqdirlashni kiritish mumkin.

Bundan tashqari qonunning 27- moddasida ta’lim oluvchilar uchun sifatli ta’limni, tarbiyani ta’minlash, ularning iste’dodini shakllantirish va namoyon etish maqsadida joylarda ularga zarur sharoitlar yaratish bo’yicha dasturlarni ishlab chiqishlari tegishli tashkilot va idoralarga yuklatilgan. Shu sababli, jamiyat talabalarining bilim- lariga, ijodiy rivojlanishiga, eng oqilona konstruktiv, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy yechimlarni topishga, ilmiy ma’lumotni tanlab olishda turli yo’nalishlarga, turli fundamental masalalarni hal qilishda yangi talablarni taqdim etadi.

Ijodiy jarayonda ilmiy izlanishlar olib borilishi kerak bo’lgan, va ayni paytda, qat’iy xulosalar qilinishi kerak bo’lgan mavzular ko’p. Buning boisi, har bir shaxsning o’ziga xos va takrorlanmas olam ekanligi bo’lsa, ajab emas. Shunday qiziqarli, ko’p qirrali, murakkab muammolardan biri – iqtidor va talant masalasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtidorli talabalar bilan ishlash ularning o’ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini chuqur anglashni talab qiladi. Bu kabi talabalar o’zlarining tengdoshlaridan ajralib turadigan ajoyib iste’dod va intellektual qobili- yatlarga ega. Professor-o’qituvchilar, ota-onalar va siyosatchilar iqtidorli talabalarining o’z salohiyatlarini to’liq ro’yobga chiqarishlari va jamiyatga katta hissa qo’shishlari uchun ularni tarbiyalash va qo’llab-quvvatlash muhimligini tan olishlari kerak. Bunga erishish uchun iqtidorli talabalar bilan ishlashda ishtirok etuvchi asosiy tushunchalarni har tomonlama tahlil qilish zarur.

Tabiiy iste’dod yoki qobiliyatga ega bo’lish yoki namoyon etish.⁴

“Iqtidorli va iste’dodli” atamasi talabalar, bolalar yoki yoshlarga nisbatan ishlatilganda, intellektual, ijodiy, badiiy yoki yetakchilik qobiliyati kabi sohalarda yuqori yutuqlarga erishish qobiliyatini tasdiqlovchi talabalar, bolalar yoki yoshlarni anglatadi.

O’zbek tilining izohli lug’atida “Iqtidor – kuch-quvvat, qudrat; qodirlik, qobiliyat “Talent – katta qobiliyat, iste’dod” deb ta’riflangan. “Qobiliyat” – “biror ishga qobillik, yaroqlilik layoqat” va ikkinchi ma’nosi “iste’dod, talant” tarzida qayd qilingan. Demak, “Iste’dod” ham, “Iqtidor” ham, “Talent” ham bir-biriga ma’nodosh so’zlar qabilida tushuntirilgan.

O’zbekiston xalq yozuvchisi O’tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida talant va iqtidorni bir xil mazmundagi tushunchalar sifatida ishlatilgan.

U “Hayotning boshqalar ko’rmagan tomonini ko’rish – talant” deb tushuntiradi⁵.

Iqtidor kishida tug’ma yoki hayotiy faoliyat davomida qo’lga kiritiladimi? degan savolga O’tkir Hoshimov ishonch bilan “Ijodkor bo’lish uchun eng avvalo iqtidor kerak, iqtidorni esa yolg’iz Alloh beradi” deydi.

“Qobiliyat” – “mayl, qiziqish, moyillik, sodiqlik tarafdorlik; layoqat, qobillik, qodirlik. Bilim ko’nikma, malaka- lardan farqli o’laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari” ma’nosidagi so’zdir.

“Talent” grekcha so’z bo’lib, “tabiiy, tug’ma iste’dod” ma’nosini bildiradi⁶.

“Daho” – “favqulodda zehn va zakovat, ijodiy talant” egasi⁷. Ma’lumki, psixologiyada “iqtidor” tushunchasi aniq ta’rifga ega emas.

Nemis psixologi Uilyam Stern tomonidan berilgan, XIX-asrning oxiri va XX-asr boshlarida shaxs psixologi- yasi bo’yicha mutaxassis bo’lgan. Stern talabalarining iqtidor va aql-zakovati bo’yicha tadqiqot olib bordi va tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar asosida “Aqliy qobiliyat” (Mantiqiy iqtidor) nomli kitob yozdi.

Shunday qilib,

Iqtidor - bu insonning o’z fikrini yangi talablarga ongli tarzda yo’naltira olish qobiliyatidir;

3 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4910-son qaror: <https://lex.uz/uz/docs/-5141332>

4 Collins English Dictionary – Complete and Unabridged, 12th Edition 2014 © HarperCollins Publishers

5 O’tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, ISBN raqami:978-9943-6105-6-9, nashriyot:G’afur G’ulom, nashr yili:2019, Betlar:296

6 Большая Советская энциклопедия. (В 30 томах)/под ред.. А. М. Прохоров.- М.: Советская энциклопедия,. Т. 18 -.1974, – 632 с.

7 Э. А. Бегматов, А. П. Мадвалиев “Ўзбек тилининг изоҳли луғати Д ҳарфи”, “Ўзбекистон миллий энсклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент 2008й. ISBN 5898901329, 9785898901325



Iqtidor - bu psixikaning yangi vazifalar va hayot sharoitlariga moslashish qobiliyatidir.

Iqtidor - bu faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unligi⁸;

D.J. Renzulli nazariyasiga ko'ra, iqtidorlilik uchta asosiy xususiyat: intellektual qobiliyatlar (o'rtachadan yuqori), ijodkorlik va qat'iyatlilik (vazifaga yo'naltirilgan motivatsiya) birikmasidir. Bundan tashqari, uning nazariy modeli bilim (erudition) va qulay muhitni hisobga oladi.

D.J. Renzulli tomonidan ishlab chiqilgan kontsepsiya iqtidorli bolalar kontingenti aql, ijodkorlik yoki muvaffaqiyat testlari bilan aniqlangandan ko'ra ancha kengroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Muallif parametrlarning kamida bittasida yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatgan bolalarni iqtidorli deb tasniflashni taklif qiladi. Uch halqali kontsepsiya qo'shimcha ravishda iqtidorning ikki turi akademik iqtidor va ijodiy samarali iqtidor mavjudligini ta'kidlaydi. Iqtidorning bu ikki turi muhim va ko'pincha o'zaro ta'sir qiladi va ikkalasi ham maxsus dasturlarda rag'batlantirilishi kerakligi haqida yozadi.

A.V. Kulemzina tadqiqotlarida "...bolalar iqtidori ko'p qirrali, turli xil, fanlararo xarakterdagi murakkab hodisadir. U tarixiy, tarkibiy-funksional, tizimli qiymat va faoliyat yondashuvlarini o'z ichiga olgan integratsiyalashgan pedagogik tahlil yordamida o'zining adekvat talqini oladi" deb ta'riflanadi.

V.D. Shadrikova tadqiqotlarida "...iqtidorlilik insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir nechta faoliyat turlarida yuqori (g'ayrioddiy, favqulodda) natijalarga erishish imkoniyatini belgilaydigan psixikaning hayot davomida rivojlanadigan aqliy sifatleri tizimli xarakterlanadi" deb ta'riflanadi.

Shatalov Dmitriy Vladislavovich ham tadqiqotlarida "...tashkilotda iste'dodlarni boshqarish doimiy bo'lishi kerak. Iste'dodlarni aniqlash, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar kadrlarga strategik investitsiyalar bo'lib, ularning natijalari bir yarim yildan keyin ko'rinadi. Tashkilotdagi iqtidorli xodimlarning daromadlilik, agar iste'dodlarni boshqarish va biznesni rivojlantirish strategiyasi o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lsa va korporativ madaniyat rivojlanishining ma'lum darajasida juda yuqori bo'ladi" deb o'z fikrini bildirgan.

Boris Mixaylovich Teplovning "Qobiliyatlilik va istedadlilik" nomli maqolasida insonlardagi tug'ma va o'rtirilgan qobiliyatni o'rganib chiqib, "Iqtidor-bu har qanday insonning yuqori qobiliyatidir, ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishda ko'proq yoki kam muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'lgan imkoniyatlarning sifat jihatdan o'ziga xos birlashmasidir" deb ta'riflaydi.

Hozirga kelib ko'pgina psixologlar tan olishmoqdaki, iqtidorning rivojlanish saviyasi, o'ziga xoslikning sifati va xarakteri irsiyat hamda tabiatdan berilgan va talabalar faoliyatiga vosita bo'lgan ijtimoiy soha (o'yinlar, o'qish, mehnat)ning o'zaro murakkab ta'siri natijasidir.

L.V.Papovanning aytishicha iqtidorning o'ziga xos jihatlari talabalarda o'zining tengqurlariga nisbatan erta rivojlanishida namoyon bo'ladi. Oddiy aqliy kuchlarning yanada yuksalishiga umid bog'laydigan dastlabki yutuqlar, ba'zan, rivojlanishning asrning rivojlanish bosqichi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi bilan izohlash oson emas. Diqqat-e'tiborni jalb qiladigan xususiyatlar uzoq muddatli qiymatga ega bo'lmagan yoshga bog'liq. Misol uchun, talabalar turli xil rejalar tuza boshlasa, sxemalar, mavhum tushunchalar bilan shug'ullansa, unga katta e'tibor qaratish lozim emas.

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirishda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Dastlab, mavzuga oid mavjud ilmiy-adabiy manbalar, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan konseptual nazariyalar, maqolalar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda pedagogik texnologiyalar bo'yicha so'nggi yillardagi tadqiqot ishlari chuqur tahlil qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonida uchraydigan pedagogik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini asoslash maqsadida kompleks ilmiy metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi, differensial o'qitish kontsepsiyasi, hamda pedagogik diagnostika g'oyalari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida nazariy tahlil, empirik, diagnostik va baholash, tajriba-sinov (eksperimental) metodlari, Matematik-statistik tahlil metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maxsus iqtidor turli ko'rinishdagi matematik, texnik faoliyatlarda namoyon bo'ladi.

Qobiliyat, iste'dod va iqtidor tushunchalari:

- 1) muayyan faoliyat va uni bajara olish darajasi;
- 2) individual xususiyat sifatida aks etadi.

8 Психология: Словарь/ Под общ. ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. – М., 1990. – С. 247.



Shaxs iqtidori mohiyatiga ko'ra turli yo'nalishi va darajalari bo'yicha tavsiflanadi:

- 1) yo'nalishiga ko'ra: ilmiy tafakkur (ilm-fan yo'nalishida), badiiy tafakkur (adabiyot yo'nalishida), musiqa (musiqa yo'nalishida), sport (sport sohasida), raqs (xoreografiya yo'nalishida), tasviriy san'at (rassomlik yo'nalishida), amaliy san'at (milliy hunarmandchilik, haykaltaroshlik yo'nalishlarida), texnik iqtidor (texnika yo'nalishida), harbiy mahorat (harbiy sohada), ijtimoiy moslashuvchanlik (ijtimoiy munosabatlar yo'nalishida);
- 2) darajasiga ko'ra: qobiliyatlilik, iqtidorlilik, noyob iqtidorga egalik (daholik).
Iqtidorga egalik turli vaziyat va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Kishilik tafakkuri tarixida noyob iqtidorga egalik quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lganligi barchaga ma'lum, ya'ni:

- 1) yoshlik yillaridanoq badiiy, musiqiy va tasviriy san'at asarlarini yarata olish (Alisher Navoiy, Aleksandr Sergeevich Pushkin, Vilyam Sheksper; Wolfgang Amadey Mosart, Lyudvig Van Betxoven, Fridrik Shopen, Iogann Sebastyan Bax; Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Bronarroti Mekelanjelo, Rafael (Rafaello Santi), Ogahiy, Feruz,
- 2) yoshlik yillaridanoq o'ta murakkab matematik amal va fizik formulalarni bajara olish (Lev Davidovch Landau, Mixayil Lomonosov, Tomas Alva Edison), Al-Beruniy, Al-Xorazmiy;
- 3) yoshlik yillaridanoq jang qilish san'atini namoyon etish (Aleksandr Makedonskiy, Amir Temur, Napoleon Bonapart, Aleksandr Suvorov), Jaloladdin Manguberdi.

Jahon ilm-fani va madaniyati tarixida o'ta iqtidorlilik bilan nom qozongan shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, ilm- fan, texnika va ijtimoiy munosabatlar yo'nalishida iqtidorlilik yuqorida qayd etib o'tilgan yo'nalishlardan farqli ravishda bir qadar keyinroq (ya'ni, 18 yoshdan keyin) ko'zga tashlangan.

Demak, iqtidor u yoki bu yo'nalishdagi faoliyatning yuksak samaradorlik, unum va muvaffaqiyat bilan bajarilishini ta'minlovchi psixologik xususiyatdir. Iqtidorli talabalar esa o'zlarida yuqori darajada bilish, psixologik va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini namoyon etuvchi shaxslardir.

Iqtidorli talabalarni tanlash murakkab jarayon bo'lib, uni tashkiliy jihatdan to'g'ri amalga oshirish talab etiladi.

Jahon pedagogikasi iqtidorli talabalarni aniqlash bo'yicha muayyan tajribalarga ega bo'lsada, iqtidorlik darajasini aniq belgilovchi yagona metodika mavjud emas. Ayni vaqtda individual farqlar hamda shaxsiy o'ziga xos xususiyatlarni belgilashda psixometriya doirasida bir qator metodlaridan foydalanilmoqda.

AQSh Iqtidorli bolalar milliy assotsiatsiyasi portalida har bir shtatlarning iqtidorli tushunchasiga bergan tariflari (1-jadvalda) keltirilgan.

1-jadval: Iqtidorli va talantlilik to'g'risidagi qarashlar

Intelktual qobiliyatli bolalar va yoshlar - bu o'zlarining yoshi, tajribasi yoki atrof-muhitiga taqqoslaganda, akademik yoki ijodiy sohalarida yuqori darajalarda ijro etadigan yoki potensialni namoyish etganlar. Ushbu bolalar va yoshlar odatdagi maktab dasturida ko'rsatilmagan xizmatlarga muhtoj. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan bolalar va yoshlarni barcha aholi qatlamlarida, barcha iqtisodiy qatlamlarda va inson faoliyatining barcha sohalarida topish mumkin.	Alabama
"Iqtidorli "bu ajoyib aql, qobiliyat yoki ijodiy iste'dodni namoyish etishni anglatadi." (4 Alyaska ma'muri. Kod §52.890)	Alyaska
"Iqtidorli o'quvchi" - bu qonuniy maktab yoshidagi, yuqori intellekt yoki rivojlangan o'quv qobiliyati tufayli yoki ikkalasi uchun ham boshqacha tarzda rivojlanish uchun imkoniyat berilmagan bolani anglatadi. bolaning aql-zakovati va qobiliyatiga mos keladigan darajalarga erishish uchun sinfda o'qitish va tegishli iqtidorli ta'lim xizmatlariga muhtoj bo'lganlar	Arizona
Iqtidorli va iste'dodli bolalar va yoshlar bu yuqori potensialga yoki qobiliyatga ega bo'lganlardir, ularning ta'lim xususiyatlari va ta'lim ehtiyojlari sifat jihatidan tabaqalashtirilgan ta'lim tajribalari va xizmatlarni talab qiladi.	Arkanzas
Iqtidorli talaba - yuqori intellektual va ijodiy qobiliyat (lar) ni namoyish etadigan, g'ayrati yuqori darajada namoyon bo'lgan va muayyan ilmiy sohalarida ustun bo'lgan va maxsus ko'rsatmalarga va maxsus yordamchi xizmatlarga muhtoj talaba.	Georgiya
"Iqtidorli talabalar" deganda mahalliy maktab okrugidagi xronologik tengdoshlari bilan taqqoslaganda bir yoki bir nechta tarkib sohalarida yuqori darajadagi qobiliyatga ega yoki namoyish etadigan va ular o'zlarining imkoniyatlariga muvofiq ta'lim dasturlarini o'zgartirishni talab qiladigan talabalar tushuniladi.	Nyu-Jersi



"Iqtidorli talaba" - bu malakali mutaxassislar tomonidan yuqori ko'rsatkichlarga qodir ekanligi aniqlangan va odatdagi ta'lim dasturida ko'rsatilganidan tashqari ta'lim dasturlari va xizmatlariga muhtoj bo'lgan shaxsni anglatadi." (Shimoliy Dakota ent. Kod § 15.1-32-01)

Shimoliy
Dakota

Iqtidorli talabalar mutaxassislar va boshqa malakali shaxslar tomonidan yuqori qobiliyatlarga ega bo'lgan va qobiliyatlari, iste'dodlari va salohiyatlari o'zlarining bilimlarini amalga oshirish uchun odatdagi maktab dasturida ko'zda tutilganidan yuqori sifatli tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari va xizmatlarini talab qiladilar. o'ziga va jamiyatga hissa qo'shish. (Vayoming shtati. Ann. 21-9-101)

Vayoming

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar iqtidorli talabalar bilan ishlashda mavjud pedagogik muammolarni tizimli tahlil qilish imkonini berdi. O'tkazilgan kuzatuvlar, so'rovnomalalar va suhbatlar natijasida quyidagi asosiy tendensiyalar aniqlandi:

O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi-Tahlil natijalariga ko'ra, 68% o'qituvchilar iqtidorli talabalar bilan ishlash uchun maxsus metodika va yondashuvlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat ko'proq metodik qo'llanmalar va amaliy mashg'ulotlarning yetarli emasligi bilan bog'liq.

Motivatsion omillar-iqtidorli talabalar o'rtasida o'tkazilgan anketa natijalari shuni ko'rsatdiki, 74% talabalar o'z iqtidorini rivojlantirish uchun qo'shimcha motivatsion rag'bat (grant, tanlov, loyiha ishtiroki) yetishmasligini bildirgan. Bu esa ularning ijodiy faolligini pasaytiruvchi muhim psixologik omil sifatida baholandi.

Pedagogik sharoitlar-tadqiqotda aniqlanishicha, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur pedagogik sharoitlarning mavjud emasligi (masalan, individual ta'lim dasturlari, differensial topshiriqlar tizimi, mentorlik modeli) ularning intellektual o'sishini cheklab qo'yimoqda.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish-tajriba-sinov jarayonida o'qituvchilar tomonidan raqamli ta'lim vositalari (Moodle, Google Classroom, Kahoot, Quizlet)ni qo'llash iqtidorli talabalar bilim faolligini 23% ga oshirgani aniqlandi. Bu raqamli vositalar shaxsga yo'naltirilgan ta'limni samarali amalga oshirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi.

Ijodiy muhitning roli-eksperimental guruhda o'tkazilgan mashg'ulotlar davomida o'quv jarayonida ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va loyiha asosidagi ta'lim usullarini qo'llash natijasida talabalarning kognitiv faolligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari 30–35% ga oshgan.

Hamkorlik modeli samaradorligi-o'qituvchi, talaba va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish iqtidorli talabalar rivojida muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida namoyon bo'ldi. Natijalarga ko'ra, bunday hamkorlik mavjud bo'lgan guruhlarining 80% iqtidorli talabalarida yuqori motivatsiya va ijtimoiy faollik kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtidorli talabalar bilan ishlash samaradorligi quyidagi omillarga bevosita bog'liq:

- o'qituvchining metodik tayyorgarligi va pedagogik refleksiyasi;
- ta'lim jarayonining individuallashtirilgan shaklda tashkil etilishi;
- raqamli vositalar va interaktiv metodlardan kompleks foydalanish;
- ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning mavjudligi.

Mazkur natijalar asosida iqtidorli talabalar bilan ishlashning integratsiyalashgan modeli taklif etildi. Ushbu model o'qituvchi faoliyatini metodik qo'llab-quvvatlash, iqtidorli talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtidorli talabalar bilan ishlashning muvaffaqiyati pedagogning kasbiy tayyorgarligi, ta'lim jarayonining individuallashtirilgan shaklda tashkil etilishi va raqamli texnologiyalarni kompleks qo'llashga bog'liq. Ijodiy muhit yaratish, motivatsiyani oshirish va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish orqali ta'lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. O'qituvchilarning pedagogik refleksiyasi, innovatsion yondashuvi va differensial topshiriqlarni qo'llash iqtidorli talabalar salohiyatini ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

1. O'qituvchilar malakasini oshirish tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish.
2. Iqtidorli talabalar uchun individual o'quv yo'nalishlari va mentorlik dasturlarini joriy etish.
3. Raqamli ta'lim vositalaridan foydalangan holda ijodiy topshiriqlar va elektron kurslarni ishlab chiqish.
4. Grantlar, tanlovlar va stipendiyalar orqali motivatsion rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish.



5. Ota-onalar, o'qituvchilar va talabalarning o'zaro hamkorligini kuchaytiruvchi pedagogik dasturlarni amalga oshirish.
6. Iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish va ularning amaliy faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Iqtidorli talabalarni aniqlashning an'anaviy usullarida nomdor stipendiyalarga taqdim etishda va ularni ishlarini ko'rib chiqishda ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ya'ni iqtidorli talabalarni aniqlashning usul va vositalari barcha shakllarini to'laqonli amaliyotga kiritish orqali ularning kreativ salohiyatini rivojlantirish ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi kunda ushbu usullarini raqamli ta'lim muhitiga moslashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gentry, M., Peters, S. J., & Mann, R. L. (2007). Differences between general and talented students' perceptions of their career and technical education experiences compared to their traditional high school experiences. *Journal of Advanced Academics*, 18(3), 372–401.
2. Кулемзина, А. В. (2005). Детская одаренность как предмет педагогического анализа. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук, 13(01), 11–16.
3. Шаталов, Д. В. (2012). Роль системы образования в формировании талантов.
4. Теплов, Б. М. (1982). Способности и одаренность. Психология индивидуальных различий. Тексты. М.: Изд-во Моск. ун-та.
5. Fouad Ahmed Ali Albrahim & Sumaihan Naser Al Rashidi (2020). Identifying gifted and talented students and methods to enhance their development. *The Journal of Scientific Research, OnlineFirst*. <https://doi.org/10.37575/h/edu/2192>
6. Page, A. (2006). Three models for understanding gifted education. *Kairaranga*, 7(2), 11–15.
7. Abu, L. U. (2018). Identifying talented and gifted students in a Northeastern middle school (Doctoral dissertation, Walden University, Minneapolis).
8. Delov, T. E. (2022). Use of world experience in identifying talented students. *British View*, 7(4).
9. Delov, T. E. (2018). Problems of selection and development of talented students in the field of information technologies. *American Journal of Research*, № 1–2 (1–2), January–February. DOI: 10.26739/2573-5616. – P. 70–81.
10. Редько, Л. Л. (2001). Управление качеством непрерывного уровня педагогического образования в условиях формирования региональных образовательных систем.
11. Na, S. D., & Burns, T. G. (2016). Wechsler intelligence scale for children–V: Test review. *Applied Neuropsychology: Child*, 5(2), 156–160.
12. Bogoyavlenskaya, D. B., Bogoyavlenskaya, M. E., & Zhukova, E. S. (2016). On the issue of uncovering giftedness in early childhood. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 233, 333–337.
13. Delov, T. (2023). Iqtidorli talabalarni virtual ta'lim texnologiyalari asosida raqamli kompetentligini rivojlantirish. *Digital Transformation and Artificial Intelligence*, 1(4), 50–57.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.